



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

KOLLABORATIV YONDASHUV ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING ADABIY-NUTQIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODIK ASOSLARI

Temirova Iqbol Sadriddinovna

Buxoro davlat pedagogika instituti, tayanch doktorant

Annotatsiya

Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining adabiy-nutqiy kompetensiyasini kollaborativ yondashuv asosida rivojlantirishning nazariy-metodik asoslari yoritilgan. Adabiy-nutqiy kompetensiya matnni anglash, badiiy obrazlarni talqin qilish, fikrni og'zaki va yozma shaklda izchil ifodalash hamda refleksiv munosabat bildirish bilan bog'liq integrativ kompetensiya sifatida talqin etiladi. Tadqiqotda mazkur kompetensiyaning adabiy-idrokiy, interpretativ, nutqiy-kommunikativ, refleksiv va integrativ komponentlari tahlil qilingan. Kollaborativ yondashuvning o'quvchilarda muloqot, fikr almashish, dalillash va mustaqil xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyati asoslangan. Natijada hamkorlikka asoslangan ta'lim badiiy matnni anglash va nutqiy faoliyatni rivojlantirishning samarali metodik vositasi sifatida baholangan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, adabiy-nutqiy kompetensiya, kollaborativ yondashuv, badiiy matn, nutqiy faoliyat, interpretatsiya, refleksiya, o'qish savodxonligi.

ТЕОРЕТИКО-МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ЛИТЕРАТУРНО-РЕЧЕВОЙ КОМПЕТЕНЦИИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ НА ОСНОВЕ КОЛЛАБОРАТИВНОГО ПОДХОДА

Темирова Икбол Садриддиновна

Бухарский государственный педагогический институт, базовый докторант

Аннотация

В статье освещаются теоретико-методические основы развития литературно-речевой компетенции учащихся начальных классов на основе коллаборативного подхода. Литературно-речевая компетенция рассматривается как интегративная компетенция, связанная с пониманием текста, интерпретацией художественных образов, последовательным выражением мыслей в устной и письменной форме, а также рефлексивным отношением. В исследовании анализируются литературно-воспринимающий, интерпретативный, речево-коммуникативный, рефлексивный и интегративный компоненты данной компетенции. Обосновано значение коллаборативного подхода в развитии у учащихся навыков общения, обмена мнениями, аргументации и самостоятельного вывода. В результате обучения, основанное на сотрудничестве, оценивается как эффективное методическое средство понимания художественного текста и развития речевой деятельности.

Ключевые слова: начальное образование, литературно-речевая компетенция, коллаборативный подход, художественный текст, речевая деятельность, интерпретация, рефлексия, читательская грамотность.

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR DEVELOPING PRIMARY SCHOOL STUDENTS' LITERARY-SPEECH COMPETENCE BASED ON A COLLABORATIVE APPROACH

Temirova Iqbol Sadriddinovna

Bukhara State Pedagogical Institute, Doctoral student

Abstract

The article explores the theoretical and methodological foundations for developing primary school students' literary-speech competence through a collaborative approach. Literary-speech competence is interpreted as an integrative competence related to text comprehension, interpretation of literary images, coherent oral and written expression, and reflective response. The study analyzes the literary-perceptive, interpretative, speech-communicative, reflective, and integrative components of this competence. The role of the collaborative approach in developing students' communication, exchange of ideas, argumentation, and independent conclusion-making skills is substantiated. As a result, collaborative learning is considered an effective methodological tool for understanding literary texts and developing speech activity.

Keywords: primary education, literary-speech competence, collaborative approach, literary text, speech activity, interpretation, reflection, reading literacy.

Zamonaviy boshlang'ich ta'lim mazmunida o'quvchining faqat tayyor bilimlarni o'zlashtirishi emas, balki ularni anglay olishi, talqin qilishi, mantiqiy asoslab ifodalashi va kommunikativ vaziyatda mustaqil qo'llay olishi muhim pedagogik vazifa sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, ona tili va o'qish savodxonligi darslarida badiiy matn bilan ishlash jarayoni o'quvchilarning tafakkuri, estetik idroki, nutqiy faolligi hamda shaxsiy munosabat bildirish ko'nikmalarini rivojlantirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchisi matnni faqat o'qib tushunuvchi subyekt emas, balki mazmunni qayta talqin qiluvchi, obrazlar o'rtasidagi munosabatni anglovchi, o'z fikrini og'zaki va yozma shaklda bayon etuvchi faol ishtirokchi sifatida shakllanishi zarur. Shu sababli boshlang'ich ta'limda adabiy idrok, tafakkur va nutqiy faoliyatni bir-biridan ajratilgan holda emas, balki o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldiruvchi yaxlit jarayon sifatida tashkil etish dolzarb hisoblanadi.

Ta'lim jarayonining kompetensiyaviy modelga o'tishi adabiy ta'lim mazmunini ham yangicha talqin qilishni talab etmoqda. Matnni tushunish, uning g'oyasini anglash, badiiy obrazlarga baho berish, voqealar o'rtasidagi sabab-oqibat bog'liqligini izohlash va shu asosda izchil nutq tuzish alohida-alohida ko'nikmalar yig'indisi emas, balki yagona integrativ faoliyatning tarkibiy qismlaridir.

Shu jihatdan "adabiy-nutqiy kompetensiya" tushunchasi boshlang'ich ta'limda o'quvchining badiiy matnni idrok etishi, mazmunni talqin qilishi, muallif pozitsiyasini anglashga intilishi hamda o'z fikrini kommunikativ vaziyatga mos shaklda ifodalay olishini ifodalovchi muhim nazariy-metodik kategoriya sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur kompetensiya o'qish savodxonligi, nutqiy rivojlanish, badiiy tafakkur, muloqot madaniyati va refleksiv fikrlashni yagona pedagogik tizimda birlashtiradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida adabiy-nutqiy kompetensiyani shakllantirishda kollaborativ yondashuvning imkoniyatlari kengdir. Chunki hamkorlikka asoslangan o'quv faoliyati o'quvchilarning birgalikda fikrlashi, matn yuzasidan savol-javobga kirishishi, qahramonlar xatti-harakatini baholashi, turli talqinlarni qiyoslashi va umumiy xulosaga kelishini ta'minlaydi. Bunday sharoitda o'quvchi tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki mazmun yaratish jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi. Natijada unda adabiy idrok, interpretativ tafakkur, nutqiy-kommunikativ malaka va refleksiv munosabat uyg'un holda rivojlanadi. Shundan kelib chiqib, mazkur maqolaning maqsadi boshlang'ich sinf o'quvchilarining adabiy-nutqiy kompetensiyasini kollaborativ yondashuv asosida rivojlantirishning nazariy-metodik asoslarini yoritishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Ilmiy-metodik adabiyotlarda adabiy va nutqiy faoliyat masalalari ko'pincha alohida yo'nalishlarda o'rganilgan. Adabiy ta'limga oid tadqiqotlarda badiiy matnni idrok etish, obrazlar tizimini tushunish, estetik tarbiya, o'qish savodxonligi va matn ustida ishlash usullari keng yoritilgan bo'lsa, nutqiy rivojlanishga oid ishlarda fikrni izchil bayon qilish, og'zaki va yozma nutqni shakllantirish, kommunikativ kompetensiya, muloqot madaniyati hamda matn yaratish ko'nikmalari asosiy tadqiqot obyekti sifatida qaralgan.

Biroq boshlang'ich ta'lim sharoitida adabiy idrok va nutqiy ifodani yagona tizimda rivojlantirish masalasi alohida ilmiy-metodik yondashuvni talab qiladi. Chunki o'quvchi badiiy matnni o'qish jarayonida nafaqat mazmunni qabul qiladi, balki undagi obrazlararo munosabatni tushunadi, voqealarning sabab-oqibat bog'liqligini aniqlaydi, qahramonlar harakatiga munosabat bildiradi va ushbu munosabatni nutqiy shaklda ifodalashga harakat qiladi.

N. Mahmudov va A. Sobirovning nutq madaniyati va o'qitish metodikasiga oid qarashlarida nutqiy faoliyatning mantiqiy, grammatik va kommunikativ jihatlari matn mazmunini anglash bilan uzviy bog'liq holda talqin qilinadi [1]. Ushbu yondashuv o'quvchining nutqiy rivoji faqat til qoidalarini bilish orqali emas, balki mazmunni anglash, uni qayta ishlash va kommunikativ vaziyatga mos ifodalash orqali shakllanishini ko'rsatadi.

A. Abduqodirovning lingvopoetik yondashuvida esa badiiy obraz mazmunining til vositalari orqali ochilishi, matn qatlamlarini anglash jarayonida badiiy tafakkurning shakllanishi asoslab beriladi. Bu qarashlar boshlang'ich ta'limda adabiy idrok va nutqiy faoliyatni yagona metodik tizimda ko'rish zaruratini kuchaytiradi.

Xalqaro pedagogik va lingvodidaktik tadqiqotlarda kommunikativ kompetensiya masalasi Canale va Swain tomonidan nazariy jihatdan asoslangan bo'lib, unda til vositalaridan maqsadga muvofiq foydalanish, nutqiy vaziyatga moslashish va fikrni samarali ifodalash kompetensiyaning muhim jihatlari

sifatida qaraladi [2]. Boshlang'ich ta'limda bu qarashlar o'quvchining matn asosida fikr bildirish, savollarga javob berish, munosabat bildirish, o'z fikrini dalillash va boshqalar bilan muloqotga kirishish ko'nikmalarida namoyon bo'ladi. Badiiy matn ustida tashkil etilgan muloqotli faoliyat o'quvchidan faqat javob berishni emas, balki o'z javobini asoslashni, boshqa o'quvchi fikrini tinglashni, zarur hollarda o'z qarashini aniqlashtirishni ham talab etadi.

Psixologik tadqiqotlarda bolalarning tafakkuri, idroki, xotirasi va nutqi ijtimoiy faoliyat bilan bog'liq holda rivojlanishi ta'kidlanadi. Boshlang'ich sinf yoshidagi bolalar uchun muloqot, savol-javob, fikr almashish va hamkorlikda bajariladigan topshiriqlar bilish jarayonlarini faollashtiradi. Badiiy matn ustida ishlashda o'quvchilar qahramonlar harakatini baholaydi, voqealar ketma-ketligini tushuntiradi, muallif g'oyasini anglashga harakat qiladi va o'z xulosasini ifodalaydi. Demak, adabiy-nutqiy kompetensiyaning shakllanishi til, tafakkur, idrok va muloqotning o'zaro bog'liq rivojlanish jarayoni sifatida qaralishi lozim.

Adabiyotlar tahlili boshlang'ich sinf o'quvchilarining adabiy-nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishda bir nechta nazariy manbalar o'zaro tutashishini ko'rsatadi. Lingvistik yondashuv badiiy matnning til va ma'no qatlamlarini tushuntiradi; psixologik yondashuv o'quvchining idrok, tafakkur va nutq jarayonlari rivojini asoslaydi; pedagogik-metodik yondashuv esa mazkur jarayonni ta'lim sharoitida samarali tashkil etish mexanizmlarini belgilaydi. Kollaborativ yondashuv aynan shu uch asosni amaliy jihatdan birlashtiradi, chunki u o'quvchini matnni yolg'iz qabul qiluvchi subyekt emas, balki fikr almashish, baholash, izohlash va umumlashtirish jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining adabiy-nutqiy kompetensiyasini kollaborativ yondashuv asosida rivojlantirish masalasi nazariy-metodik jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqotning metodologik asosini kompetensiyaviy, kommunikativ, lingvopoetik, psixologik-pedagogik va kollaborativ yondashuvlar tashkil etdi.

Kompetensiyaviy yondashuv adabiy-nutqiy kompetensiyani alohida bilimlar majmuasi sifatida emas, balki matnni anglash, talqin qilish, nutqiy ifodalash va refleksiv xulosa chiqarish jarayonlarining integrativ birligi sifatida o'rganishga imkon berdi. Bu yondashuv asosida o'quvchining o'qish jarayonidagi faolligi, mazmun bilan ishlash darajasi, kommunikativ vaziyatda o'z fikrini ifodalash qobiliyati va mustaqil xulosa chiqarish imkoniyatlari tahlil qilindi.

Lingvopoetik yondashuv badiiy matnning semantik, stilistik va konseptual qatlamlarini anglash jarayonini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etdi. Boshlang'ich sinf o'quvchisi badiiy matnni o'qish davomida so'zning lug'aviy ma'nosi bilan birga uning obrazli, emotsional va estetik yukini ham anglay boshlaydi. Metafora, epitet, tasviriy ifodalar, qahramon nutqi, voqealar dinamikasi va muallif munosabati o'quvchi tafakkuri hamda nutqiy faoliyatini faollashtiradi.

Psixologik-pedagogik yondashuv esa boshlang'ich sinf yoshidagi o'quvchilarning idrok, tafakkur, xotira, tasavvur va nutqiy rivojlanish xususiyatlarini hisobga olishga xizmat qildi. Bu yosh bosqichida o'quvchilar matn mazmunini ko'proq obrazlar, aniq voqealar, qahramonlar harakati va emotsional taassurotlar orqali qabul qilgani sababli savol-javob, rolli muloqot, guruhli muhokama, voqealarni qayta hikoya qilish, qahramonlarga baho berish va umumiy xulosa chiqarish kabi faoliyat turlari samarali hisoblanadi.

Kollaborativ yondashuv o'quvchilarning birgalikda ishlashi, fikr almashishi, o'zaro yordam ko'rsatishi va umumiy natijaga erishishini ta'minlovchi metodik asos sifatida qaraldi. Bu yondashuvda o'qituvchi bilimni tayyor holda yetkazuvchi emas, balki o'quvchilar faoliyatini yo'naltiruvchi, muhokama muhitini tashkil etuvchi va har bir o'quvchining nutqiy faolligini rag'batlantiruvchi metodik boshqaruvchi sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot jarayonida nazariy tahlil, umumlashtirish, qiyosiy-metodik tahlil va modellashtirish usullaridan foydalanildi. Nazariy tahlil orqali adabiy-nutqiy kompetensiyaning mazmuni va tarkibiy qismlari aniqlandi; umumlashtirish metodi yordamida adabiy idrok va nutqiy faoliyatning o'zaro bog'liqligi asoslandi; qiyosiy-metodik tahlil orqali an'anaviy matn ustida ishlash usullari bilan kollaborativ faoliyatga asoslangan metodik yondashuvning imkoniyatlari taqqoslandi; modellashtirish usuli esa adabiy-nutqiy kompetensiyani rivojlantirishning tarkibiy komponentlarini tizimlashtirishga xizmat qildi.

Tahlil va natijalar

Adabiy-nutqiy kompetensiya boshlang'ich sinf o'quvchisining matn bilan ishlash jarayonida shakllanadigan murakkab integrativ sifat bo'lib, u badiiy matnni tushunish, undagi voqealar izchilligini anglash, qahramonlar xarakteri va xatti-harakatiga munosabat bildirish, asar g'oyasini talqin qilish hamda

o'z fikrini nutqiy shaklda ifodalash qobiliyatlari bilan belgilanadi. Bu kompetensiya faqat o'qish texnikasi yoki ravon nutq bilan chegaralanmaydi; u mazmunni idrok etish, tahlil qilish, baholash va kommunikativ vaziyatda qayta ifodalash jarayonlarini o'z ichiga oladi. Shu jihatdan adabiy-nutqiy kompetensiya adabiy-idrokiy, interpretativ, nutqiy-kommunikativ, refleksiv va integrativ komponentlarning o'zaro aloqadorligida namoyon bo'ladi.

Adabiy-idrokiy komponent o'quvchining badiiy matn mazmunini anglash, obrazlar tizimini tushunish, voqealar ketma-ketligini farqlash va mazmuniy bog'lanishlarni idrok etish qobiliyatida ko'rinadi. Boshlang'ich sinf o'quvchisi uchun bu ko'nikma matn mazmunini qayta hikoya qilish, asosiy voqealarni ajratish, qahramonlarni farqlash va ularning harakatlarini tushuntirish orqali shakllanadi.

Interpretativ komponent esa matn g'oyasi, muallif pozitsiyasi, obrazlararo munosabat va badiiy ma'noni talqin qilish bilan bog'liq. O'quvchi dastlab qahramon harakatiga sodda tarzda "yaxshi", "yomon", "to'g'ri", "noto'g'ri" kabi baholar beradi, biroq metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilgan muhokama jarayonida bu baholar asta-sekin asoslangan fikrga aylanadi. U qahramon nima uchun shunday yo'l tutganini tushuntirishga, matndan dalil keltirishga, boshqa qahramonlar bilan qiyoslashga harakat qiladi. Kollaborativ yondashuv aynan shu jarayonni chuqurlashtiradi, chunki guruhdagi har bir o'quvchi o'z nuqtayi nazarini bildiradi, turli talqinlar yuzaga keladi va umumiy xulosa shakllanadi.

Nutqiy-kommunikativ komponent o'quvchining fikrni og'zaki yoki yozma shaklda izchil, aniq, mantiqan bog'langan va kommunikativ vaziyatga mos ifodalashini qamrab oladi. Badiiy matn yuzasidan savollarga javob berish, qahramon haqida fikr bildirish, voqealarni qayta hikoya qilish, muallif g'oyasini tushuntirish, o'z munosabatini asoslash kabi topshiriqlar ushbu komponentning rivojlanishiga xizmat qiladi. Kollaborativ faoliyatda o'quvchi faqat o'qituvchiga emas, balki tengdoshlariga ham murojaat qiladi, ularning fikrini tinglaydi, o'z qarashini izohlaydi va nutqiy faolligini tabiiy kommunikativ sharoitda rivojlantiradi.

Refleksiv komponent esa o'quvchining o'z fikrini qayta ko'rib chiqishi, boshqa fikrlar bilan qiyoslashi, xatoni ang'ay olishi va yangicha xulosa chiqarishi bilan belgilanadi. Boshlang'ich sinfda refleksiya ko'pincha sodda shaklda namoyon bo'ladi: o'quvchi "men avval boshqacha o'ylagandim", "do'stimning fikridan keyin tushundim", "bu qahramonni boshqacha baholash mumkin ekan" kabi mulohazalar bildiradi. Aynan kollaborativ muhit bunday refleksiv holatlarni yuzaga chiqaradi, chunki o'quvchi o'z fikrini yakka holda emas, turli qarashlar bilan muloqotda shakllantiradi.

Integrativ komponent yuqoridagi barcha tarkibiy qismlarning yagona o'quv faoliyatida uyg'unlashuvini ifodalaydi. O'quvchi matnni tushunadi, qahramonlarga baho beradi, asar g'oyasini ang'aydi, o'z xulosasini chiqaradi va uni izchil nutqiy shaklda bayon qiladi. Demak, integrativ komponent adabiy-nutqiy kompetensiyaning yakuniy metodik ko'rsatkichi sifatida qaralishi mumkin. Bu komponentning shakllanishi, ayniqsa, kollaborativ darslarda yaqqol ko'zga tashlanadi, chunki o'quvchilar matn mazmunini birgalikda aniqlaydi, savollar asosida muhokama qiladi, dalillarni qiyoslaydi va umumiy fikrga keladi. An'anaviy darsda o'quvchi ko'pincha o'qituvchi savoliga yakka tartibda javob beradi va uning javobi qisqa baholanadi; kollaborativ darsda esa matn ustida ishlash jarayoni suhbat, juftlikda fikrlash, kichik guruhda tahlil qilish, umumiy xulosa ishlab chiqish kabi bosqichlarda tashkil etiladi.

Boshlang'ich sinflarda kollaborativ yondashuv asosida adabiy-nutqiy kompetensiyani rivojlantirish uchun bir nechta metodik shartlar muhim hisoblanadi. Avvalo, matn tanlovi o'quvchilarning yosh xususiyatlari, tajribasi va qiziqishlariga mos bo'lishi kerak; savollar faqat matn mazmunini eslab qolishga emas, balki talqin qilish, baholash va xulosa chiqarishga yo'naltirilishi zarur. Guruhli faoliyatda har bir o'quvchining nutqiy ishtiroki ta'minlanishi, o'quvchilarning javoblari esa faqat to'g'ri yoki noto'g'ri mezon bilan emas, balki fikrning asoslanganligi, izchilligi va matnga tayanganligi asosida baholanishi maqsadga muvofiq.

Shunda kollaborativ yondashuv o'quvchilarning matn mazmunini chuqurroq anglashiga yordam beradi, obrazlar va voqealar o'rtasidagi bog'liqlikni tushunish imkonini kengaytiradi, og'zaki nutq faolligini oshiradi, mustaqil va asosli fikr bildirish ko'nikmasini rivojlantiradi, boshqa fikrlarni tinglash va ularga munosabat bildirish madaniyatini shakllantiradi.

Kollaborativ yondashuv o'qish savodxonligini rivojlantirishga ham bevosita xizmat qiladi. Chunki o'qish savodxonligi faqat matnni texnik jihatdan o'qish emas, balki undagi axborotni anglash, talqin qilish, baholash va hayotiy vaziyatlar bilan bog'lashni talab etadi. Badiiy matn asosida tashkil etilgan guruhli muhokamalar aynan shu jarayonlarni faollashtiradi. O'quvchi matn yuzasidan fikr bildirar ekan, o'z nutqini matn dalillari bilan asoslashga, voqealarni mantiqiy izohlashga va umumiy xulosa chiqarishga o'rganadi. Natijada adabiy-nutqiy kompetensiyani rivojlantirishda kollaborativ yondashuv nafaqat metodik

usul, balki o'quvchining shaxsiy, kommunikativ va kognitiv rivojlanishini ta'minlovchi pedagogik tizim sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa va takliflar. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining adabiy-nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish zamonaviy ta'limning muhim metodik vazifalaridan biri bo'lib, u o'quvchining badiiy matnni anglash, mazmunni talqin qilish, qahramonlarga baho berish, o'z fikrini izchil bayon qilish va kommunikativ vaziyatda faol ishtirok etish qobiliyatlarini birlashtiradi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, adabiy-nutqiy kompetensiya alohida ko'nikmalar yig'indisi emas, balki adabiy idrok, interpretativ tafakkur, nutqiy-kommunikativ faoliyat, refleksiya va integrativ xulosa chiqarish jarayonlarining o'zaro bog'liq tizimidir. Shu bois boshlang'ich ta'limda badiiy matn bilan ishlash jarayoni faqat mazmunni qayta aytirish yoki savollarga javob oldirish bilan cheklanmasligi, balki o'quvchini matnni anglash, talqin qilish, baholash va o'z fikrini asoslashga yo'naltirishi zarur. Kollaborativ yondashuv mazkur kompetensiyani rivojlantirishda samarali metodik asos bo'lib xizmat qiladi. Hamkorlikdagi faoliyat o'quvchilarni birgalikda fikrlashga, matn yuzasidan savol berishga, dalil keltirishga, boshqa fikrlarni tinglashga va o'z nuqtayi nazarini qayta ko'rib chiqishga o'rgatadi. Bunday yondashuv badiiy matnni o'rganish jarayonini passiv qabul qilishdan faol talqin qilish jarayoniga aylantiradi. Natijada o'quvchilarning o'qish savodxonligi, og'zaki nutqi, mantiqiy fikrlashi, kommunikativ madaniyati va refleksiv munosabati rivojlanadi.

Mazkur tahlillar asosida boshlang'ich sinflarda badiiy matn bilan ishlash jarayonida guruhli muhokama, juftlikda fikrlash, rolli suhbat, qahramonlar xatti-harakatini baholash, matndan dalil topish va umumiy xulosa chiqarish kabi kollaborativ topshiriqlardan tizimli foydalanish tavsiya etiladi. Dars jarayonida savollar faqat mazmunni qayta aytishga emas, balki izohlash, asoslash, qiyoslash va baholashga yo'naltirilishi lozim. O'quvchilarning javoblari baholanganda fikrning mustaqilligi, matnga tayanganligi, nutqiy izchilligi va kommunikativ faolligi asosiy mezon sifatida olinishi maqsadga muvofiq. Shuningdek, o'qituvchilar uchun adabiy-nutqiy kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan metodik tavsiyalar, topshiriqlar tizimi va baholash mezonlarini ishlab chiqish, boshlang'ich sinf darsliklarida badiiy matnlar yuzasidan kollaborativ faoliyatni rag'batlantiruvchi savol va topshiriqlar ulushini oshirish zarur. Umuman olganda, kollaborativ yondashuv asosida adabiy-nutqiy kompetensiyani rivojlantirish boshlang'ich ta'limda o'quvchini matnni anglovchi, talqin qiluvchi, fikrini asoslab ifodalovchi va muloqotda faol ishtirok etuvchi shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa boshlang'ich ta'limning kompetensiyaviy, kommunikativ va shaxsga yo'naltirilgan mazmunini amaliy jihatdan boyitadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mahmudov N.M. O'qituvchi nutqi madaniyati. — Toshkent: O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2007.
2. Canale M., Swain M. Theoretical Bases of Communicative Approaches to Second Language Teaching and Testing // Applied Linguistics. — 1980. — Vol. 1. — No. 1. — P. 1–47. — DOI: DOI.org
3. Sobirov A. Uzluksiz ta'limda til kompetensiyasi // Nutq madaniyati va o'zbek tilshunosligining dolzarb masalalari: Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. — Andijon, 2016. — B. 87.
4. PIRLS 2021 Assessment Framework. — International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA), 2021.
5. G'oziyev E. Psixologiya: umumiy kurs. — Toshkent: Universitet, 2019.
6. Hasanboyeva M. Pedagogik psixologiya. — Toshkent: O'zbekiston faylasuflari jamiyati nashriyoti, 2014.